

**№ S/4 (3) - 2023**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES**



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ  
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
ELECTRONIC JOURNAL**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

***Nº S/4 (3) – 2023***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши хузуридаги Судьялар олий мактаби

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

#### **Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

#### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

#### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Аббасов Беҳзод Бахтиёрович</i>	
1946 – 1965 ЙИЛЛАРДА ФАРГОНА ВОДИЙСИДА ИРРИГАЦИЯ ВА МЕЛИОРАЦИЯ ИШЛАРИ ҲАМДА АҲОЛИНИ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРГА КЎЧИРИШНИНГ БОШЛАНИШИ .....	10-21
<i>Бабаджанов Ҳасан Бахтиёрович</i>	
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ОЗИҚ-ОВҚАТ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАЪМИНОТИДА ТОМОРҚА ХЎЖАЛИКЛАРИНИНГ ЎРНИ .....	22-27
<i>Саидбобоева Гулзора Нематжоновна</i>	
ГОЭЛРО РЕЖАСИ ВА УНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА АМАЛГА ОШИРИЛИШИ .....	28-36
<i>Rasulov Ma'murjon Foziljonovich</i>	
О'ЗБЕКИСТОНДА XALQARO SAYYOHLIKNI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY MEROS OBYEKTALARINING O'RNI .....	37-42
<i>Жиянбекова Шарофат Абдикахаровна</i>	
А.С. ПУШКИН НОМИДАГИ САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ КУТУБХОНА МАРКАЗИНИНГ ТАШКИЛ ЭТИЛИШИ ВА ШАКЛЛАНИШИ ТАРИХИ .....	43-51
<i>Esonov Ziyodbek Yuldashevich</i>	
FARG'ONA VODIysi QORAQALPOQLARI HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN .....	52-58
<i>Фарманова Гульнара Комилевна</i>	
ИЗ ИСТОРИИ ПЕРВЫХ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ РАБОТ И ИССЛЕДОВАНИЙ НА АФРАСИАБЕ .....	59-65
<i>Turaev Sherzod Gulboy ugli</i>	
DESCRIPTION OF CHARACTERISTICS AND TYPES OF LIVESTOCK FARMING OF SURKHAN OASIS IN B.H. KARMISHEVA RESEARCH .....	66-71
<i>Сотиболдиев Гайратжон Отамирзаевич</i>	
ИНТЕРНЕТНИНГ ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА КИРИБ КЕЛИШИ ТАРИХИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР .....	72-78
<i>Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich</i>	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИ ТАРИХИ МАНБАЛАРИНИНГ УМУМИЙ ТАВСИФИ .....	79-90
<i>Абдуллајсанова Нигорахон Турдалиевна</i>	
БЕРУНИЙ ВА ИБН СИНО ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ МЕРОСИ ТАРИХШУНОСЛИГИДАН .....	91-95
<i>Дониёров Носиржон Абдухолик ўғли</i>	
ЎЗБЕК ТИЛИ ВА ИМЛО СИЁСАТИДАГИ ЎЗГАРИШЛАР ТАРИХИДАН .....	96-102

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Юлдашев Обиддин, Махлиё Мамбетқурова</i>	
ИСЛОМИЙ СУФУРТА (ТАКАФУЛ) ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	103-109

<i>Фозилов Умид Закирович</i>	
БОШҚАРУВ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ ОҚИЛОНА БАҲОЛАШ ТАШКИЛОТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ АСОСИ .....	110-118
<i>Shoyev Davronbek Axmadjonovich</i>	
BOSHQARISH SIFATINI OSHIRISHDA “MENEJMENT LABORATORIYASI”NI TASHKIL QILISHNING O’RNI .....	119-125
<i>Орзуқулова Зумрад Абдуҳолиқ қизи</i>	
ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ .....	126-133
<i>Djurakulov Shoxrux, Isaxonova Mohinur</i>	
O’ZBEKİSTONDA RAQAMLI IQTISODİYOT VA UNI TAKOMILLASHTIRISH IMKONİYATLARI .....	134-139
<i>Raxmatullayeva Feruza Azimovna, Sharobiddinov Ahrorbek Qosimjon o’g’li</i>	
YALPI HUDUDIY MAHSULOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI .....	140-146
<i>Ёдгорова Шахноза Хайридиновна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАРДА ТҮҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ТАЖРИБАЛАРИ .....	147-155
<i>Qurbanov Ma’murjon G’ayrat o’g’li</i>	
ASOSIY ISHLAB CHIQARISH KO’RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISH USLUBIYATI .....	156-166
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
BUXORO VILOYATINING NOMODDIY-MADANIY MEROSONING O’ZBEKİSTON TURİZMI RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	167-172
<i>Маматов Бахадир Сафаралиевич</i>	
РИВОЖЛАНГАН ВА РИВОЖЛНАЁТГАН МАМЛАКАТЛАРНИНГ ПЕНСИЯ ТАЪМИНОТИ ТИЗИМИ ТАЖРИБАЛАРИ .....	173-188
<i>Гойиназаров Санжар Баходирович</i>	
ИНСОН КАПИТАЛИНИ РАҶАМЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ДРАЙВЕРЛАРИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	189-195
<i>Садинов Азиз Зиядуллайевич</i>	
ЧИҚИНДИ МАҲСУЛОТЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	196-203
<i>Курбонова Раҳима Жамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна, Ҳакимов Дамир</i>	
ИЖТИМОЙ КАПИТАЛНИ ЎЛЧАШДА ИЖТИМОЙ ТАРМОҚЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ .....	204-216
<i>Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna, Maxmudov Muxammadqodir Muzaffar o’g’li</i>	
YASHIL IQTISODİYOTNING MOHIYATI VA UNGA INVESTITSİYALARINI YO’NALTIRISH ZARURIYATI .....	217-222

*Исломов Алишер Бахтиёр ўғли*  
БУХГАЛТЕРИЯ АУТСОРСИНГ ХИЗМАТЛАРИНИ КЎРСАТИШДА ПРОФЕССИОНАЛЛИКНИ  
ТАЪМИНЛАШ ..... 223-229

*Agzamova Nargiza Gapurovna*  
SPECIFICS OF ETHNOGRAPHIC TOURISM AND ETHNIC TOURISM IN UZBEKISTAN .... 230-237

*Муродова Дилноза Чориевна*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШ БЎЙИЧА ХОРИЖ  
ТАЖРИБАСИ ВА УНИНГ АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ ..... 238-245

*Khodjaeva Shodiyabonu Abitjanovna*  
QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROMARKETING TIZIMINING AHAMIYATI VA UNING  
FUNKSIYALARI ..... 246-250

#### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Нуруллаева Зулхумор Сидаматовна*  
МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНӢЙ МАДАНИЯТ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИНИНГ  
ҮРНИ ..... 251-259

*Ibroximov Sarvar Mo'ydinjon o'g'li*  
IJTIMOIY-GUMANITAR VA MUTAXASSISLIK FANLARNI INNOVATSION PEDAGOGIK  
TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH ORQALI TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI  
TAKOMILLASHTIRISH ..... 260-265

*Yuldashev Ibroxim To'ychiyevich*  
MOVAROUNNAHR VA XUROSONDA MINIATYURA SAN'ATINING ADABIYOT BILAN O'ZARO  
UYG'UNLIGI VA G'OYAVIY ESTETIK VA AXLOQIY TASAVVURLARINING  
MUSHTARAKLIGI ..... 266-271

*Khamdamova Sitora Safarovna*  
MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXIY TARAQQIYOTIDA KROSS-MADANIYATINING O'ZIGA  
XOSLIGI ..... 272-277

*Абдуллаев Джасур Абдивайт ўғли*  
ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ КЛАССИФИКАЦИИ КАЧЕСТВ СОВЕРШЕННОГО  
ЧЕЛОВЕКА ..... 278-283

#### **10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Xasanov Akbarjon Abdurashidovich*  
O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LINGVISTIK  
BIRLIKLER BO'YICHA AMALGA OSHIRILGAN TADQIQOTLAR ..... 284-292

*Qurbanova Muharram Jurabekovna*  
XURSHID DAVRON SHE'RIYATINING TIL XUSUSIYATLARI ..... 293-297

*Сафарова Замира Рустамовна*  
ИНГЛИЗЧА ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР ТАРКИБИДАГИ ИНСОН НОМЛАРИНИНГ ЭТИМОЛОГИК  
ТАСНИФИ ..... 298-304

<i>Gubaydullin Artur Faridovich</i>	THE NUANCES OF HUMOR TRANSLATION IN TERRY PRATCHETT'S 'GOOD OMENS' ....	305-313
<i>Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Baxtiyorova Malikabonu Shavkat qizi</i>	ETEL LILIAN VOYNICHNING "SO'NA" ASARIDA BOSH QAHRAMONLAR DINAMIKASI ...	314-318
<i>Seytnazarova Injayim Erjanovna</i>	TILEWBERGAN JUMAMURATOV ASARLARIDA UNDALMALARNING USLUBIY QO'LLANILISHI .....	319-325

<i>Асадова Дилбархон</i>	ЎРХОН ПАМУҚНИНГ "ҚОРА КИТОБ" РОМАНИДА "ЎЗЛИКНИ ИЗЛАШ" МОТИВИ ....	326-342
--------------------------	---	---------

<i>Khusanov Eldor Davlat o'g'li</i>	BUYUK BRITANIYA VA AMERIKA INGLIZ SHEVALALARINING O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI .....	343-348
-------------------------------------	---	---------

## 12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Утемуратов Махмут Ажимуратович</i>	ЖАМИЯТДА ХУҚУҚИЙ ОНГ ВА ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТНИ ЮКСАЛТИРИШ – ХУҚУҚИЙ ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТ БАРПО ЭТИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ .....	349-355
---------------------------------------	---	---------

<i>Шымбергенова Улзада</i>	ТЕРГОВ ҲАРАКАТЛАРИДА ВОЯГА ЕТМАНЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАНФААТЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШДА ПЕДАГОГ (ПСИХОЛОГ)НИНГ РОЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	356-362
----------------------------	--	---------

<i>Полвонов Нажмиддин Аслиддинович</i>	ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА МОЛ-МУЛКНИ МУСОДАРА ҚИЛИШ МАҚСАДИ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ .....	363-372
--	---	---------

<i>Мирзаев Щухрат Шавкатович</i>	КАТЕГОРИЯ «ДЕЙСТВИЕ ПРАВА»: ПОНЯТИЕ, СУЩНОСТЬ И ПРЕДЕЛЫ .....	373-382
----------------------------------	---	---------

<i>Муҳаммадиев Сарвар Асқар ўғли</i>	"ЖИНОЯТ НАТИЖАСИДА ЕТКАЗИЛГАН ЗАРАРНИ УНДИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ" .....	383-392
--------------------------------------	--	---------

<i>Махмудов Суннат Азим ўғли</i>	ЖИНОЯТ ИШИНИ ТУГАТИШ АСОСИ СИФАТИДА ЯРАШУВ ВА ХУСУСИЙ АЙБЛОВНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИҲАТЛАРИ .....	393-399
----------------------------------	---	---------

## 13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Farrux Axmedov</i>	XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH .....	400-409
-----------------------	--	---------

<i>Музабарова Соодат Хайдаровна</i>	ЎРТА АСРЛАР ШАРҚ АЛЛОМАЛАРИ МАҶНАВИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА ВА УНИНГ ЭСТЕТИК АҲАМИЯТИ .....	410-415
-------------------------------------	---	---------

*Xaydarova Iroda Nizomiddinovna*

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARI TALAFFUZINI TAKOMILLASHTIRISH NUQTAYI  
NAZARIDAN 2020-2021 O'QUV YILI FAN DASTURLARI VA MATERIALLARI TAHLILI ... 416-421

*Шукрова Нафиса Алишеровна*

ЗАМОНАВИЙ ВОЛЕЙБОЛГА ХОС ҲИМОЯ ҲАРАКАТЛАРИНИ МОДЕЛЛАШТИРИЛГАН  
ТАРТИБДА ШАКЛЛАНТИРИШ ..... 422-427

*Nigmanov Bori Botirovich*

FUTBOLCHILARNI TAKTIK TAYYORLASHDA HARAKATLI O'YINLARNING  
AHAMIYATI ..... 428-433

*Муродова Дурдона Раимжон қизи*

БҮЛАЖАК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ БАДИЙ-ЭСТЕТИК  
КОМПЕТЕНТЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ПЕДАГОГИК  
ТЕХНОЛОГИЯСИ ..... 434-438

*Axmedov Alisher Nosir o'g'li*

ANSAMBL BILAN ISHLASH METODLARI VA TAMOYILLARI ..... 439-447

*Saparboyeva Dilshoda Sobir qizi*

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA INSON QADRINI ULUG'LASH MADANIYATINI  
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ..... 448-452

*Mansurbekova Feruza Gayratovna*

BOLALAR XORLARI BILAN ISHLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ..... 453-456

*Xodjayev Bolta Qurbonovich, Xojiyeva Matluba Shukurovna*

O'QITUVCHI MEHNATNI ILMIY ASOSDA TASHKIL ETISH YO'LLARI ..... 457-465

*Atamuratova Munira*

O'ZBEK GURUHLARIDA INGLIZ TILINI XORIJY TIL SIFATIDA O'QITISHDA MADANIY  
ASPEKTDAN FOYDALANISHGA OID ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INTERFAOL  
METODLAR TAVSIFI ..... 466-471

*Нурилло Эминов*

ХОРАЗМ ДОСТОНЛАРИНИНГ МОҲИР ИЖРОЧИСИ ОТАХОН МАТЁҚУБОВНИНГ ИЖОДИГА  
БИР НАЗАР ..... 472-476

*13.00.00 – Педагогика фанлар*

**Farrux Axmedov**  
Samarqand davlat universiteti tadqiqotchisi  
Elektron pochta: [a-farrux@samdu.uz](mailto:a-farrux@samdu.uz)  
Tel: +998933575467

### **XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA KURASHNI RIVOJLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Olimpiya va Osiyo O'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlari tajsibasi misolida kurashni rivojlanterish yuzasidan ilmiy asoslangan takliflar bildirilgan. Olingan ma'lumotlar va olib borilgan tahlillar asosida kurashni kelgusida ommalshtirish va uning xalqaro nufuzini oshirish bo'yicha xulosalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kurash, milliy sport turlari, xalqaro tajribalar, Olimpiya O'yinlari.

**Farruh Ahmedov**  
Researcher at Samarkand State University  
E-mail: [a-farrux@samdu.uz](mailto:a-farrux@samdu.uz)  
Tel: +998933575467

### **KURASH DEVELOPMENT BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCES**

**Abstract.** This article presents scientifically based suggestions on the development of kurash on the example of national sports included in the program of the Olympic and Asian Games. Based on the received information and the conducted analysis, conclusions were drawn up on the further popularization of kurash and increasing its international prestige.

**Keywords:** kurash, national sports, international experiences, Olympic Games.

**Фаррух Ахмедов**  
Соискатель Самаркандского государственного университета  
E-mail: [a-farrux@samdu.uz](mailto:a-farrux@samdu.uz)  
Tel: +998933575467

### **РАЗВИТИЕ КУРАША НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА**

**Аннотация.** В данной статье представлены научно обоснованные предложения по развитию кураша на примере национальных видов спорта, включенных в программу Олимпийских и Азиатских игр. На основе полученной информации и проведенного анализа сделаны выводы по дальнейшей популяризации кураша и повышению его международного престижа.

**Ключевые слова:** кураш, национальные виды спорта, международный опыт, Олимпийские игры.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3SI4Y2023N50>

**Kirish.** Dunyo miqyosida milliy sport turlarini jahonga olib chiqish va uni kelgusida Olimpiya O'yinlari dasturiga kiritish vazifasi birlamchi hisoblanadi. Olimpiya O'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlarini esa ushbu o'yinlarda doimiy va barqaror saqlab qolinishi ta'minlash doimiy vazifalardan hisoblanadi [1]. Shu sababdan aksariyat milliy sport turlari paydo bo'lgan va shakllangan mamlakatlar vakillari mazkur jihatda alohida ahamiyat qaratishadi.

Dunyo Sport Entsiklopediyasida qayd etilishicha (Liponski Wojciech. World Sport Encyclopedia. 2003), 8000 ta milliy sport turlari va milliy o'yinlar mavjud. Yuqoridagi sport turlari va milliy xalq o'yinlaridan 35tasi kurash turlari ekanligi qayd etilgan.

Parij-2024 Olimpiya O'yinlari dasturiga 48ta sport turi kiritilgan Osiyo O'yinlari dasturiga esa 42ta sport turi kiritilgan [[www.olympic.org](http://www.olympic.org)]. Ushbu sport turlarining aksariyati milliy sport turlari bo'lib, ular tarixiy taraqqiyot va rivojlanish davrlarini bosib o'tgan hamda sport turi sifatida shakllangan.

Tadqiqotchilarning qayd etishicha, milliy sport turlari ma'lum geografik hududda qadimdan mavjud bo'lgan xalq vakillari tomonidan yaratilgan, qo'llanilgan va rivojlantirilgan jismoniy harakat shakkari hisoblanadi. Ma'lum taraqqiyot bosqichida ushbu sport turlari xalq o'yinlaridan sport turi maqomiga ko'tarilgan.

**Xorijiy tajribalar tahlili.** Milliy sport turlarini rivojlantirish borasida Janubiy Koreya tajribasi alohida diqqatga sazovordir. Taekvondoga doir tarixiy va ilmiy-uslubiy manbaalarda qayd etilishicha [2]. Taekvondo sportining rivojlanishi va taraqqiyot bosqichlari o'z ichiga bir qancha davrlarni oladi. Bu davr dastlab yapon milliy sport turi karatedan taekvondoning farqlari va xususiy jihatlarini ajratib olishdan boshlangan edi. Bu boradagi boshqa tadqiqot ishlari ham yuqoridagi fikrlarni tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra, 1960 yillargacha taekvondoga doir terminlar turli xilda, asosan, karatega doir terminlar bilan talaffuz etilgan va qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik 1987 yilga kelib to'liq koreys tili va madaniyatiga asoslangan tarzda talaffuz etishga o'tilgan. Ta'kidlash kerakki, bu o'rinda nafaqat taekvondoga doir terminlarni ishlab chiqish va koreys tilida qo'llashga doir bilimlar yuzaga kelgan, balki, taekvondo falsafasi, uning ma'naviy asoslari ishlab chiqilganligi alohida ahamiyatga ega. Bizning fikrimizcha, taekvondo rivojlanishi va uning Olimpiya O'yinlari dasturiga kiritilishida nafaqat ushbu sport turi bo'yicha mutaxassislarning say'i harakati, balki, koreys xalqining ongi va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati ham yuqori o'rinni tutadi.

Yaponiya mustamlakasi davrida Koreya fuqarolari dastlab karate sportini o'rganish yoshlarga uni o'rgatish ishlari bilan shug'ullangan bo'lsa, keyinchalik bu jarayon mazmun va mohiyati jihatidan takomillashtirilgan. Koreya davlati mutaqillikka erishgandan so'ng taekvondoni rivojlantirish bo'yicha mutlaqo yangi tizim joriy etilgan. Xususan, ayollar o'rtasida taekvondoni rivojlantirish tajribasidan ma'lum bo'lishicha [3], taekvondoni ayollar o'rtasida rivojlantirishda dastlab ushbu sport turini Exva Ayollar Universiteti (Ehwa Woman's University) sport klublarida mashg'ulotlar tashkil etilgan. Ayollarning mazkur sport turiga bo'lgan qiziqishlari, ularning ham jismonan ham ma'nana rivojlanishlari uchun taekvondo mashg'ulotlari universitetda olib borilgan.

Boshqa manbaalarga ko'ra, Yaponiya mustamlakasidan so'ng Janubiy Koreyada taekvondo sport turini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanganligi ma'lum. Bunda taekvonda milliy sport turidan xalqaro sport turi darajasiga

tomon rivojlantirilishi, uni ommalashtirish uchun barcha resurslardan samarali foydalanilganligi qayd etilgan.

Koreyalik mutaxassis Moenigning ta'kidlashicha (2015), taekvondoning jang san'ati darajasidan yakkakurash sport turigacha bo'lgan rivojlanish davrlari juda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Bunda assosiy e'tibor taekvondo va karate o'rasidagi falsafiy xilma-xillik, milliy ruh va milliy xususiyatlarga bog'liqlik masalasiga qaratilgan. Keyingi bosqichda esa taekvondo texnikasining har bir yo'nalishi, xususan, turli zarba berish usullari, jang olib borish, taekvondo etikasi va boshqa shu kabilar alohida ishlab chiqilgan. 1960 yillarda dastlabki taekvondoga doir koreys tilidagi adabiyotlar nashr etilgan. Keyinchalik, 1970-1990 yillar davomida ingliz va boshqa tillardagi adabiyotlarni nashr etish, mavjud adabiyotlarni tarjima qilish ishlari alohida e'tibor qaratilgan. Ahamiyatli jihatim shundaki, Koreya Universitetlarida taekvondo bo'yicha magistrlar tayyorlangan va dissertatsiya ishlari tayyorlangan.

1980 yilda dastlabki taekvondoga doir nemis tilidagi adabiyot nashr etilgan. Mazkur adabiyot kores mutaxassisi Ko Eui Mun tomonidan yozilgan. 1975-1977 yillarda Koreya milliy terma jamoasi murabbiysi safatida faoliyat ko'rsatgan va 1978 yilda Germaniyaga taekvondoni o'rgatish maqsadida yuborilgan edi. Mazkur adabiyot taekvondo janglari (sparring, Taekwondo Wettkampf) o'tkazishga qaratilgan edi.

Taekvondaga bag'ishlangan dastlabki tadqiqotlar va ilmiy-uslubiy adabiyotlarda ham mazkur sport turining rivojlanishi va evolyutsiyasi atroflicha keltirilgan. Xususan, yetakchi taekvondo mutaxassisi U.Y.Kim o'z tajribalarida ushbu sport turini rivojlantirishda dastlab uning g'oyaviy negizlarini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etganligini qayd etadi. Unga ko'ra Koreya mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng (1945) taekvondoni rivojlanish bo'yicha qilangan dastlabki amaliy ishlardan biri bu ushbu sport turining g'oyaviy negizlarini, uning koreys xalqi va madaniyatiga xosligi, ijobiy ijtimoiy ahamiyati mavjudligini ko'rsatib o'tilgan. Taekvondo haqiqatdan ham ijobiy ta'sirga ega, shaxs rivojlanishi va uning barkamol bo'lishiga ta'sir etuvchi omil ekanligi ta'kidlangan.

Taekvondo evolyutsiyasiga doir boshqa adabiyotlarda, xususan, so'nggi yillarda nashrlarda milliy madaniyat muhim ahamiyat kasb etganligi ta'kidlab o'tilgan [4]. Taekvondo rivojlanishi 3ta katta bosqichga ajratgan. Bu boradagi tahlillar shuni ko'rsatdiki, taekvondo rivojlanishining turli bosqichlarida uning ma'naviy, estetik, texnik-taktik tuzilishi, musobaqa qoidalari va boshqa qoidalari muntazam o'zgartirib borilgan.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar va Koreyalik taekvondo mutaxassislarning xulosalariga ko'ra taekvondo alohida sport turi ekanligi, uning ildizlari va rivojlanish tarixi koreys millati va xalqining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu boradagai xulosalar va fikrlar bir qancha ilmiy asoslab berilgan. Mazkur ilmiy adabiyotlarda taekvondoning alohida sport turi ekanligi va uning koreys xalqining milliy sporti ekanligi aniq va ishonchli dalillar bilan ko'rsatib berilgan.

Taekvondo bo'yicha dastlabki o'quv jarayonlari, taekvondo klublarini ochish ishlari 1945 yildan boshlangan. Ushbu klub 1945 yila Seulda ochilgan va bu jarayon 1960 yillargacha davom etgan bir qancha maktablar tashkil etilgan. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra dunyoda taekvondo bilan 156ta davlatda 30 milliondan ortiq insonlar shug'ullanib kelishmoqda. Janubiy Koreya hukumati milliy sport turi bo'lgan taekvondoni rivojlanish uchun bir qator imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratib bergenlar.

Mahalliy olimlar va mutaxassislar taekvondo bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borganlar va bu jarayon muntazam olib borilmoqda. Tahllillar shuni ko'rsatadiki, umume'tirof etilgan ilmiy platformalardan (Web of Science, Google Scholar) taekvondo sportiga doir nashrlar qidirilganda 80758ta turli xildagi nashrlar aniqlandi. Tahllillar yana shuni tasdiqladi, taekvondoga doir turli xil tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, taekvondo tarixi, uning rivojlanishi, taekvondochilarini tayyorlash, bolalar uchun taekvondo va boshqa qimmatli tajriba natijalari aniqlangan.

Yana bir muhim jihat shundaki Janubiy Koreya va dunyoning ko'plab mamlakatlarida taekvondo o'quv predmeti sifatida o'qitiladi va mazkur sport turi bo'yicha kadrlar tayyorlanadi. So'nggi ma'lumotlarga tayangan holda ta'kidlash kerakki [5], taekvondo 1982 yilda Janubiy Koreya universitetlarining o'quv dasturiga o'quv predmeti sifatida kiritilgan. 2022 yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreyaning 61ta universitet va kollejlari taekvondo bo'yicha akademik o'quv kurslari bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi. Shuningdek, Janubiy Koreyaning ba'zi universitetlarida taekvondo fakulitetlari faoliyat ko'rsatadai va ushbu fakulitetlar taekvondo mutaxassislarini tayyorlash bilan birgalikda, ilmiy faoliyat bilan ham shug'ullanadi.

Taekvondoni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va taekvondo sporti bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borishda Koreya Milliy Sport Universiteti (Korean National Sport University) alohida o'rinn tutadi. Mazkur universitetda taekvondo bo'yicha bakalavr, magistr va doktorantura bosqichlarida kadrlar tayyorlanadi va ilmiy-tadqiqotlar olib borilishi diqqatga sazovordir.

Koreya Milliy Sport Universiteti taeuvondoni o'qitish dasturiga ko'ra nomzodlar mazkur sport turiga xos bo'lgan fundamental bilimlarni egallashi kerak. Xususan, taekvondo tarixi, nazariyasi, falsafasi va boshqa shu kabi talablar shular jumlasidandir.

### 1-jadval

#### **Koreya Milliy Sport Universiteti Taekvondo ixtisosligida bakalavr akademik darajasi uchun o'qitiladigan fanlar**

Nº	Mavzular	Kredit
<b>Taekvondo asoslari</b>		
1	Institatlarda taekvondoni o'qitish	2
2	Taekvondoning zamonaviy tarixi	2
<b>Taekvondo nazariyasi</b>		
1	Taekvondo falsafasi	2
2	Taekvondo mashg'ulotlari metodlari	2
3	Taekvondo pumsai	2
4	Taekvondoni o'qitish metodlari	2
5	Taekvondo texnikasini biomexanik tahlil qilish	2
6	Taekvondo texnikasini anatomik tahlil qilish	2
7	Taekvondo va Sport diplomatiyasi	2
8	Taekvondo nutritsiyasi tahlili	2
9	Taekvondoda hakamlik	2
10	Taekvondoda psixologik tahlil	2
<b>Taekvondo mashg'ulotlari</b>		
1	Taekvondo musobaqalariga rahbarlik	2
2	Taekvondo mashg'ulotlari va ko'rgazmalar	2

3	Taekvondo muammolari bo'yicha seminarlar	2
4	Taekvondo boshqaruvi	2
5	Taekvondo tadbirlarini tashkil etish	2
6	Jang san'atlari qiyosiy tahlili	2
<b>Dissertatsiya</b>		
1	Taekvondo fanida tadqiqot usullari	2
2	Taekvondo tadqiqotlarida statistika	2
<b>Jami kreditlar</b>		40

Yuqoridagi tahliliy jadvaldan ko'rish mumkinki, mazkur universitetda taekvondoga doir chuqur bilim beriladi. Mazkur o'quv dasturlari nomzodning taekvondo bo'yicha har tomonlama bilim va malakaga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilganligi diqqatga sazovordir. Ahamiyatli jihat, xorijiy fuqarolar uchun taekvondo ixtisosligida bakalavr va magistratura akademik darajasini olish uchun alohida kvotalar ajratiladi. Shuningdek, doktorlik darajasini olish uchun nomzodlar taekvondo ixtisosligida tadqiot olib borishlari uchun tanlovlardan e'lon qilinadi.

Alohida ta'kidlash kerakki, sport turizmi so'nggi yillarda juda rivojlangan sohaga aylangan. Bu borada Janubiy Koreya tajribasi yuqori darajada. Xususan, taekvondo turizmi va ushbu vosita sifatida mazkur sport turini rivojlantirish ushbu davlatda yaxshi yo'lga qo'yilgan.

Milliy sport turini rivojlantirish borasida Indoneziya tajribasini tahlil qilish muhim deb hisoblaymiz. Penchak Silat yakkakurash va jang san'ati Indoneziya milliy sporti sifatida e'tirof etiladi. Ushbu sport turini rivojlantirish, uning ilmiy-uslubiy asoslarini o'rganish, ta'lim jarayoniga tatbiq etish yuzasidan amaliy ishlarni so'nggi yillarda ayniqsa takomillashib bormoqda.

Penchak silatga doir nashrlar (ilmiy maqolalar, anjuman materiallari, qo'llanmalar va boshqalar) Web of Science va Google Scholar xalqaro ma'lumotlar bazalaridan qidirilganda 22108 ta nashr aniqlandi. Aniqlangan manbaalar ushbu sport turining turli sohalarini qamrab olganligi alohida ahamiyatlidir.

Ma'lumotlarga ko'ra Penchak Silat Indoneziya mustaqilligini qo'lga kiritgan davrdan boshlab (1949) ushbu sport turi ta'lim tizimiga izchil tatbiq etilgan [6]. Indoneziyada Penchak silat mashg'ulotlarini tashkil etishga qaratilgan amaliy ishlarni olib borilgan. Uning falsafiy va tarbiyaviy asoslari ilmiy jihatdan o'rganish masalasi bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilgan. 1988 yilda esa xalqaro tashkilot tashkil todi va bu voqealarda ushbu sport turini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Hozirda Penchak silat bo'yicha universitetlarda ilmiy jamoalar xalqaro musobaqalarda mazkur sport turida ishtirokchilarni tahlil etish, sportchilarni turli ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarini aniqlash bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirmoqdalar [7]. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur sport turi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda av jahon championatlarida tahlil earayonlari olib borilmoqda.

Indoneziya ta'lim tizimida Penchak silat asosiy o'rinda turadi. Ta'lim muassasalarida, xususan, o'rta ta'lim va universitetlarda mazkur sport turi fan yoshlarga o'rgatiladi [8].

Jakartadagi Yogyakarta Universitetida penchak silat bo'yicha chuqur tadqiqot ishlari olib boriladi. Universitet mazkur sohada tadqiqotlar o'tkazish va kadrlar tayyorlashda mamlakatda yetakchi hisoblanadi.

Penchak silat sport turining rivojlanishi, uni mamlakatda va jahonda ommalashtirish borasida ta'lim muassasalari yetakchi o'rinni tutadi. Mamlakatda Penchak silat ustuvor sport turi sifatida qaraladi.

Jahon miqyosida boshqa milliy sport turlarining rivojlanishi, mazkur jarayonda sport turini targ'ib etuvchilarning faoliyati va yondashuvlari to'g'risida ko'plab fikrlarni keltirish mumkin. Yetakchi antropolog olim Kilyasovning tadqiqotlari (2019) "Buyuk Ipak Yo'li"da mavjud bo'lgan xalqlar va millatlar tomonidan bir qancha milliy sport turlari va xalq o'yinlari tarixan mavjud bo'lganligini tasdiqlaydi [9]. Uning fikriga ko'ra qadimdan mavjud bo'lgan va hozirda ham amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan milliy sport turlari "etnosport" nomi bilan atalib kelinmoqda. Tarixan turli xalqlarda, xususan, Hindiston, Mongoliya, Xitoy, Misr va boshqa shu kabi mamlakatlarda ko'plab jismoniy faollik turlari mavjud bo'lgan. Ammo, ularning aksariyati o'zining tipologik xususiyatlari va mohiyatini yo'qotgan. Natijada, ushbu jismoniy harakat turlari tor doirada qo'llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda mazkur etnosport turlari YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, ularni rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazib berishga harakat qilinmoqda.

Milliy sport turlarini rivojlantirish bo'yicha Yaponiya tajribasi yuqori o'rinda turadi. Yapon xalqining dzyudo sport turi bugungi kunda juda ommalashgan sport turi sifatida ma'lum. Dzyudo asoschisi professor Dzigaro Kanoning fikriga ko'ra dzyudo avvalo shaxs tarbiyasiga ijobiy ta'sir etishga qaratilganligini qayd etadi [10]. Dzyudo bilan shug'ullanish bu shaxsni yetuk qilib tarbiyalash, uning ruhiy, ahloqiy va ma'naviy jihatlarini tarbiyalash demakdir, deya ta'kidlaydi professor Kano.

Keyinchalik, dzyudoni rivojlantirish borasidagi say'i harakatlar tobora ommalashib, tarbiyaviy, ta'limiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlar kasb eta boshladи.

Veseda Universiteti professori (Yaponiya) Shohei Sato dzyudo evolyutsiyasiga doir tadqiqotlarida bir qator fikrlarni bildirib o'tgan [11]. Uning fikricha dzyudo rivojlanishining dastlabki bosqichidanoq, yapon xalqi va dzyudoni targ'ib qiluvchilar dzyudo bu sport turi emas balki "hayot yo'li" sifatida uni ommalashtirishga intilganlar. Yaponiyada dzyudo milliy jismoniy madaniyat timsoli sifatida rivojlantirish va insonlar ongiga bu tushunchani singdirish asosiy maqsad bo'lgan.

Ko'pchilik mutaxassislar dzyudoning rivojlanishi, dunyoda uning ommalashib ketishi Kodokan maktabining ochilishi, dzyudo mutaxassislar tayyorlash jarayonlarining takomillashishi va boshqa shu kabi bir qator faktorlar bilan izohlaydilar. Biroq, boshqa bir tadqiqotda ko'rsatib o'tilishicha, dzyudoning bu darajada ommalashib ketishi, uning dunyo miqyosida eng sevimli sport turlaridan biriga aylanishida ikkita asosiy faktor muhim o'rinni tutgan. Birinchi faktor bu yapon xalqining vatanparvarlik va millatsevarlik xarakteri. Qayd etilishicha, yapon xalqining o'z vatani va millatiga bo'lgan cheksiz hurmati va milliy g'urur bevosita dzyudoni sevish va uni targ'ib etishga undaydi. O'sha davr yapon yoshlarining vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga hurmat ko'rsatishshi dzyudoni shiddat bilan rivojlanishiga saba bo'lgan.

Dzyudo sportida va ta'lim integratsiyasining samarali yo'lga qo'yilganligi ikkinchi muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Professor Kano o'z davrida Konfutsiy maktabida tarbiya topgan va keyinchalik o'z tajribalarini yanada oshirgan edi. O'sha davrda yapon ta'lim tajribasi Frantsiya va AQSh ta'lim tizimiga joriy etilgan. Yapon mutaxassislar mazkur davlatlarga ta'lim berish uchun yuborilgan. Shu bilan birga professor Kano yaponianing bir qancha

universitetlarida dzyudoni yoshlarga o'rgatish faoliyati bilan shug'ullangan. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, dzyudo rivojining dastlabki bosqichlaridanoq u ta'lim jarayoniga izchil tatbiq etilgan.

Dzyudoning Olmpiya O'yinlari dasturiga kiritilishi (1964 yil) ushbu sport turini dunyoda yanada rivojlantirish va ommalashtirishga bo'lgan intilishlarni to'xtatgani yo'q. Aksincha, Yaponiya Hukumati va yapon xalqining say'i harakatlari tobora rivojlanib bordi va natijada ushbu sport turi bugun ko'plab mamlakatlarda ta'lim tizimga dzyudoni joriy qilishga erishildi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra [12], Yaponiya o'rta maktablarida dzyudo o'quv fani sifatida o'qitiladi. Dzyudoda mavjud bo'lgan barcha usullarning 9tasi maktab o'quvchilariga o'rgatiladi.

Yaponiya oliy maktablari va universitetlarida dzyudo klublari mavjud bo'lib, talabalarga dzyudo o'rgatiladi. Yaponyaning aksariyat universitetlarida yapon milliy sport turlari – karate, sumo va dzyudo o'qitiladi. Milliy sport turlarini o'qitish, kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqotlar olib borish bo'yicha maxsus kafedra va fakul'tetlar faoliyat ko'rsatadi. Buborada Nippon Sport Tadqiqotlari Universiteti (Nippon Sport Science University) Yaponiyada dzyudo bo'yicha kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqotlar olib borishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mazkur universitetda dzyudo bo'yicha bakalavr, magistr va doktorlik darajalari tayyorlanadi. Birgina bakalavr darajasini olish uchun har yili birgina ushbu universitetga 90ta talaba o'qishga qabul qilinadi. Ahamiyatli jihatni nafaqat bakalavr darjasini va balki magistr akademik darjasini va doktorlik darajalari uchun alohida dzyudo ixtisosligi mavjudligi diqqatga sazovordir.

Buyuk Britaniyalik mashhur dzyudo mutaxassis Mayk Kallan (2018) o'zining "Dzyudo tarixi va ilmiy ishlar aloqadorligi" nomli tadqiqot ishida, dzyudoni rivojlantirishda ilmiy ishlar katta ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra ilmiy-tadqiqot ishlari dzyudo rivojining kelgusi istiqbollariga, dzyudo ta'limi va uning ommaviyligiga ijobiy ta'sir etgan. Ilmiy tadqiqotlar orqali Yevropa va AQSh shuningdek, Osiyorning boshqa davlatlariga dzyudo kirib borganligi olim tomonidan alohida qayd etilgan.

Qayd etish kerakki, Yaponyaning boshqa bir qator universitetlarida, xususan, Tokiyo Universiteti, Tskuba, Universiteti, Teykyo Universiteti va boshqa ko'plab universitetlarida dzyudo fakul'tetlari mavjud. Mazkur universitetlar o'quv va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishadi va dzyudoni ommalashtirishga xizmat qilishadi.

Xalqaro dzyudo federatsiyasining "Bolalar uchun dzyudo Komissiyasi"ning ma'lumotlarga ko'ra [13], 2015-2017 yillarda 31ta davlatda dzyudoni maktablarning o'quv dasturiga kiritish va foydalanish ishlari faol olib borilmoqda.


"Bolalar uchun dzyudo" dasturi ijrosi bo'yicha olib borilgan tahlillarga ko'ra bugungi kunda ko'plab malakatlarda ushbu dastur ijrosi faol ta'minlanmoqda. Bolalarni dzyudoga qiziqtirish va shug'ullantirish, maktablarda dzyudo mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha dunyoning 5ta mamlakatida dzyudo maktablarda qo'llanilib kelinmoqda.

Dunyoning yetakchi sport universitetlarida dzyudo o'quv dasturiga kritilgan. Masalan, Germaniya Sport Universiteti, Latviya Sport Akademiyasi, Pekin Sport Universiteti, Litva Sport Universitetlarida dzyudo bo'yicha maxsus fakul'tetlar mavjud. Mazkur fakul'tetlarda mutaxassislar tayyorlanishi bilan birga, ilmiy izlanishlar olib boriladi va dzyudoning yangi qirralari tadqiq etiladi.

Web of Science va Google Scholar qidiruv tizimlari orqali dzyudoga doir ilmiy-uslubiy adabiyotlar qidirilganda jami 215339ta turli darajadagi nashrlar mavjudligi aniqlandi. Tahlillar

shuni ko'rsatadiki, birgina rossiyalik olimlar tomonidan 2000-2016 yillar davomida dzyudoga doir 67ta dissertatsiya ishlari himoya qilingan.

Olib borilgan tahlillar va ilmiy adabiyotlardagi ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki boshqa sport turlari bo'yicha ham ilmiy nashrlar ulushi kurash bilan taqqoslanganda sezilarli darajada ko'p. Masalan, taekvondo, penchak silat, boks, dzyudo, sambo, erkin kurash va kurashga doir nashrlarning qiyosiy tahlili quyidagi 1-rasmda tasvirlangan.



**1-rasm. Turli yakkakurash sport turlari bo'yicha xalqaro nashrlar ko'rsatkichi (ma'lumotlar Web of Science va Google Scholar bo'yicha).**

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki, turli yakkakurash sport turlarida olib borilgan tadqiqot ishlari turlicha bulib, kurash bilan taqqoslanganda juda yuqori ko'rsatkich qayd etilganligini ko'rish mumkin. Olingan ma'lumotlar kurashga doir ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirish zaruratini ko'rsatadi.

### Xulosa

1. Milliy sport turlarini rivojlantirish tajribasidan ma'lum bo'ldiki, jahonda ko'plab milliy o'yinlar (jismoniy mashq turkumlari) turlari mavjud bo'lib, ularning aksariyati sport turi darajasiga chiqsa olmagan. Ammo, jamiyatning bugungi rivojlanish davrida har bir xalq o'zlariga tegishli milliy jismoniy tarbiya va xalq o'yinlarini hamda sport turlarini yanada rivojlantirishga intilmoqdalar.

2. Milliy sport turlarining rivojlanish tarixida o'xshashlikka ega bo'lgan boshqa sport turlari bilan o'zaro raqobat mavjud. Bunda ma'lum o'zaro o'xshash bo'lgan bir nechta sport turlari orasidan muayyan bir sport turi eng ustuvor darajada rivojlangan va uning ommaviyashishiga erishilgan.

3. Tahlil etilgan milliy sport turlarining rivojlanish evolyutsiyasida mazkur xalq vakillarining milliy xususiyatlari, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatparvarlik xususiyatlari muhim rol o'yaydi. Ushbu omil sababli ma'lum millatga yoki xalqqa xos bo'lgan urf-odatlar, an'analar, milliy qadriyatlar, til va jumladan sport turi ham yuqori darajada qadrlangan rivojlantirishga harakat qilingan. Millatga xos bo'lgan ushbu xususiyatlari va umumiy maqsadga intilish hissi milliy sport turlarining ommalashdirishiga ijobjiy ta'sir etgan.

4. Milliy sport turlarining ommalashishi va xalqaro maydonda tan olinishida ikkinchi omil ushbu sport turlarining ta'lim tizimida samarali va maqsadli qo'llanilishi

hisoblanadi. Dastlab mahalliy ta'limgardarida, keyinchalik xorijiy davlatlarning ta'limgardarida kiritilishi ma'lum sport turining ilmiy asosda rivojlanishiga sabab bo'ldi.

5. Olimpiya va Osiyo O'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlari ta'limgardarida qo'llaniladi. Ta'limgardarida barcha bosqichlarida, xususan, o'rta maktablar va universitetlarda ushbu milliy sport turlari fan sifatida o'qitiladi. Universitetlarda esa mazkur sport turlari bo'yicha professional kadrlar tayyorlanadai va sport turining yangi qirralarini tadqiq etish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari olib boriladi.

6. Xorijiy universitetlarda Olimpiya va Osiyo O'yinlari dasturiga kiritilgan milliy sport turlarini o'qitish dasturi bo'lajak kadrlarning ushbu sport turi bo'yicha har tomonlama tayyorlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, ushbu sport turini o'rganish va ilmiy-tadqiqotlar olib borish istagida bo'lgan xorijiy nomzodlar uchun alohida imkoniyatlar beriladi. Bu borada xorijiy nomzodlar uchun alohida tanlovlardan e'lon qilinadi.

Kurash bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining boshqa bir qator yakkakurash sport turlari bilan qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, kurashda amalga oshirilgan ilmiy-uslubiy ishlar salmog'i juda past darajada. Kelgusida kurash bo'yicha maqsadli tadqiqot ishlari olib borish, uning ilmiy asoslarini tadqiq etish o'ta dolzarb hisoblanadi. Ilmiy-tadqiqot ishlari orqali uning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, kurashning "ilmiy imidji"ni boyitish zarurati mavjud.

### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Renson, Roland. (2009). The come-back of traditional sports and games. *Museum International*. 43. 77 - 81. 10.1111/j.1468-0033.1991.tb00947.x.
2. Madis, E. (2003). The evolution of taekwondo from Japanese karate. *Martial arts in the modern world*, 185-209.
3. Choi, C. R., Heo, C. M., SHin, M. S., & Lee, A. R. (2013). A Modern History of Women Taekwondo in Korea since the Second World War. *The International Journal of the History of Sport*, 30(3), 315-335.
4. Dimitrov, I. (2022). EVOLUTION OF TAEKWONDO FROM SPIRITUAL AND CULTURAL PRACTICE TO A MARTIAL SPORT. *PROCEEDING BOOK*, 435.
5. Johnson JA. Taekwondo as an Academic Field of Study for Non-Koreans: An Unconventional and Extreme Form of Martial Arts Tourism. *Sustainability*. 2021; 13(6):3124.
6. Ediyono, Suryo & Nugraha, Reza & Hilal, Alif. (2023). Indigenous Knowledge and Philosophy in Pencak Silat Tradition. Digital Press Social Sciences and Humanities. 9. 00019. 10.29037/digitalpress.49451.
7. Irianto, D. P., & Lumintuarso, R. (2020). Exploring the Psychological Skills of Indonesian Pencak Silat Athletes at the 18th Asian Games. *Ido Movement for Culture. Journal of Martial Arts Anthropology*, 20(2), 10-16.
8. Ediyono, S., & Dzakiria, H. (2016). Sustaining the Indonesian martial art (Pencak silat) and culture for good character building: A systemic analysis. *Advanced Science Letters*, 22(12), 4378-4381.
9. Kylasov, A. V. (2019). Traditional sports and games along the Silk Roads. *International Journal of Ethnosport and Traditional Games*, (1), 1-10.
10. Kano, J. (1932). The contribution of Judo to education. *The Journal of Health and Physical Education*, 3(9), 37-58.

11. Sato, S. (2013). The sportification of judo: global convergence and evolution. *Journal of global history*, 8(2), 299-317.
12. Yogi, Y., & Kyan, A. (2021). Skill-building and safety-related considerations for junior high school students learning judo for the first time: A complete survey of physical education teachers in KagoSHima Prefecture, Japan. *Journal of Physical Education and Sport*, 21(2), 843-851.
13. Sterkowicz-Przybycień, K., Kłys, A., & Almansba, R. (2014). Educational judo benefits on the preschool children's behaviour. *J. Combat Sports Martial Arts*, 5, 23-26.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

*Nº S/4 (3) – 2023*

## **АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**" электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масьулияти чекланган жамият

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).